



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 31 - avgust

VI-39-28-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida ko'rsatilayotgan masalalarni hal etilishi yuzasidan tuman hokimligi umumiy bo'lim mudiri Sh.Normatovning hisoboti**

Bugun har bir rahbarning oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu xalqimizning roziligiga erishishdir. Xususan, shu maqsadda, joylarda sayyor qabullar o'tkazilmoqda, haftaning seshanba kuni tuman hokimligida murojaatlarni qabul qilish kuni sifatida belgilangan, televideniya orqali ochiq muloqotlar tashkil etilib, aholining murojaatlari qabul qilinmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham murojaatlarni faol qabul qilib, qonun doirasida ijobiy hal etish choralari ko'rilmoqda, Xususan, tuman hokimligi tomonidan maxsus telegram guruh tashkil etilgan bo'lib, guruh orqali fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yilgan.

Bir so'z bilan aytganda bugun fuqarolarimiz va davlat boshqaruv organlari o'rtasida masofalar qisqarib, faoliyatimizda ochiqlik va oshkoralik ustuvor tamoyilga aylanmoqda.

2021-yil 23-iyul kuni Hurmatli Prezidentimiz rahbarligida videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, unda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash masalalari alohida muhokama qilindi.

Joriy yilning o'tgan davrda tuman hokimi tomonidan haftalik qabullardan tashqari joylarda 35 marotaba sayyor qabullar o'tkazildi. Ularda jami 586 ta murojaatlar tinglanib, 534 tasi ijobiy hal qilindi. Qolganlari o'rganish jarayonida.

Bundan tashqari, joriy yilning o'tgan davri mobaynida Xalq qabulxonasi va virtual qabulxonalar, viloyat hokimligi telegram tarmog'i orqali jami 2467 ta murojaatlar kelib tushdi. Shulardan 1785 tasi qayta o'rganishga yo'naltirilib, 1362 tasi ya'ni 76% ijobiy hal etildi.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning asosiy qismi uy-joy, ichki yullar, elektr energiyasi, tabiiy gaz, suyultirilgan, moddiy yordam va imtiyozli kredit ajartish masalariga to'g'ri kelmoqda.

Ushbu tahlillar natijasida biz qaysi sohalarida aholini qiynayotgan muammolar ko'proq ekanligini aniqlab, kelgusi faoliyatimizda ayni shu yo'nalishlarga ko'proq e'tibor qaratmoqdamiz.

Masalan, birgina uy-joy bilan ta'minlash borasida 1200 dan ortiq fuqarolarning uy-joy

masalasi bilan bog'liq murojaatlari ro'yxatga olingan.

Hozirgi kunda Olmazor mahallasi hududidan 5 ta 5 qavatli, jami 100 ta xonadondan iborat bo'lgan uylar qurilmoqda. Shundan 60 tasi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun mo'ljallangan bo'lib, qolgan 40 tasi subsidiya asosida ajratildi.

Tumanda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 10 nafar xotin-qizlarimizga hamda 2 nafar mehribonlik uyidan tarbiyalanib chiqqan, jami 12 nafar to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan fuqarolarimizga 199,0 mln so'mlik boshlang'ich to'lovlari to'lab berildi. Bu ishlarimiz kelgusida ham davom etadi, albatta.

Joriy yilda 507 ta yangi suyultirilgan gaz balonlari keltirilib, aholiga tarqatildi.

Ichki yo'llarni ta'mirlash uchun 19.7 mlrd. so'm mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, jami 50.4 km, shundan 37 km asfalt qoplamasi yotqizish, 13.4 km tuproq yo'llar tosh yo'lga aylantirilishi belgilangan. Misol uchun, birgina Samarqand mahallasidagi Shabnam, Yangi tong, Uvaysiy ko'chalarida 3.4 km ichki ko'chalar asfalt qilindi.

Elektr energiyasi uchun 8.1 mlrd. so'm mablag' evaziga 59 km. elektr havo liniyasi tortish, qo'shimcha 14 ta transformator va 1100 ta temir beton ustunlar o'rnatish belgilangan. Sahovat, Mingtepa, Farmontepa qishloqlariga 3 ta transformator, 384 ta temir beton ustunlar o'rnatildi hamda 8.4 km havo liniyasi tortildi.

4 mlrd 286 mln so'm mablag' evaziga 7 ta mahallada jami 7 ta suv inshooti o'rnatilishi va 17.2 km. suv tarmog'i tortilishi belgilangan. Hozirga kunga qadar, 3 ta suv inshooti va 9.4 km suv tarmog'i tortish ishlari yakunlanish arafasida.

Tumanda ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iyul oyida 542 nafar boquvchisini yo'qotgan, 1- va 2-guruh nogironligi bo'lgan hamda qaramog'ida nogiron farzandi bor ayollarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobari miqdorida bir martalik moddiy yordamlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining XXXIX sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida ko'rsatilayotgan masalalarni hal etilishi yuzasidan tuman hokimligi umumiy bo'lim mudiri Sh.Normatovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi umumiy bo'limi mudiri (Sh.Normatov)ga:

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida ko'rsatilayotgan masalalarni hal etilishi yuzasidan doimiy monitoring o'rnatish;

doimiy ravishda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida ko'rsatilayotgan masalalarni hal etilishi yuzasidan xalq deputatlari Bulung'ut tuman Kengashi kotibiyatiga ma'lumot taqdim

etib borish;

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni asosida kelib tushgan barcha turdagi murojaatlarga o‘z vaqtida bajarilishini doimiy ravishda nazorat qilib borish.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish hamda ijrosini ta’minlash tuman Kengashining “Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi”(T.Radjabov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev), tuman hokimligi umumiy bo‘lim mudiri Sh.Normatov zimmlariga yuklatilsin.

**Кенгаш раиси**



**B.Baxramov**